

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB OCHIQ DARSLAR TASHKIL ETISH

Mergenbaeva Asiya Erkebaevna

Nukus shahri 17-sonli umumiy ta'lim maktabining

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni faol ishtirokchiga aylantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars jarayonini qiziqarli, tushunarli va samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda zamonaviy texnologiyalardan biri bo'lgan geymifikatsiya usuli keng qo'llanilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan o'yinga qiziqadigan bo'ladi. Shuning uchun o'yin orqali o'qitish: o'quvchilarning diqqatini jalb qilishga yordam beradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantiradi, darsga bo'lgan ijobiy munosabatni kuchaytiradi.

Geymifikatsiya usulidan foydalanib darsni tashkil etish

Gamifikatsiya darsi quyidagi bosqichlar asosida tashkil etilishi mumkin.

1. Dars maqsadini belgilash.

O'qituvchi darsning mavzusi va maqsadini aniq belgilaydi hamda uni o'yin shakliga moslashtiradi.

2. O'yin ssenariysini tuzish.

Dars kvest, musobaqa yoki sayohat ko'rinishida tashkil etiladi. Masalan: "Bilimlar mamlakatiga sayohat"

3. O'yin elementlarini qo'llash.

Ballar, darajalar, stikerlar, smayliklar, rag'batlantiruvchi so'zlar va mukofotlar

4. Jamoaviy va individual topshiriqlar.

O'quvchilar guruhlariga bo'linib yoki yakka tartibda topshiriqlarni bajaradilar.

Ona tili fanidan gamifikasion o'yinlarga misollar:

"So'z ovchisi" o'yini. Bu o'yin orqali berilgan harf yoki bo'g'indan so'zlar tuzadi. Har bir to'g'ri javob uchun ball beriladi. O'yin bolalarning so'z boyligini kengaytiradi.

"Gap tuzish ustasi" o'yini. O'quvchilarga alohida so'zlar berilgan kartochkalar tarqatiladi. Ulardan ma'noli gap tuzish talab etiladi. Eng to'g'ri va go'zal jumla tuzgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

"So'z tarmoqlari saroyi" o'yini. Doskada ot, sifat va fe'llar uchun alohida xonalar chiziladi. O'quvchilar so'zlarni to'g'ri xonaga joylashtirish orqali mavzuni mustahkamlaydilar.

"Harflar sayohati" o'yini. Bu o'yinda o'quvchilar unli va undosh tovushlarni farqlaydilar. O'yin boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davrida samarali hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya tamoyillari, talablari.

1. Ixtiyoriy saylov, tanlov tamoyili. Hayotda qadrlil bo'ladigan turli narsalar bor. Shuning ichida har bir odam uchun qadrlil narsa - Erkin harakat. Ayniqsa bola uchun Erkin harakat - eng qimmatli narsa.

Qoida: har qanday ta'limda o'quvchiga erkin so'zlay olish imkoniyatini berish kerak. Erkin gapira olish mas'uliyatni his qilish bilan barobar.

2. Ochiq yorug'lik prinsipi. O'quvchiga tayyor bilim beribgina qolmay, o'quvchini izlanuvchanlikka o'rgatish.

3. Harakat tamoyili prinsipi. Bilim, ko'nikma, malakalarni harakat tarzidagina o'zlashtiradi.

4. Teskari bog'lanish prinsipi. Ta'lim jarayonini teskari aloqa qilish bilan tekshirib borish: o'quvchining his-tuyg'ularini, qiziqish darajasini, tushunishini turli usullar yordamida tekshirib borish.

5. Foydali darajalilik prinsipi. Ta'limning barcha imkoniyatlaridan foydalanish, ta'limning yuqori samaradorligini oshirish. O'quvchi ko'p narsani o'zi, o'z holicha, o'z xohishi bilan hal qiladi.

Boshlang'ich sinflarda qo'llanilayotgan tamoyillar haqida

4K Modeli o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

1. Tanqidiy fikrlash.
2. Kreativ pikirlew.
3. Kommunikativlik.
4. Kollaboratsiya.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlyandiya kabi davlatlar o'quvchilarda 4k tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

4-sinfda Ona tili fanidan "Ot" mavzusida o'tgan darsimizda o'tkazilgan metodlarni aytib o'tmoqchiman. Uy vazifasini so'rash uchun

4 ta guruhdan 1 kishidan chiqarib Blits

Yangi mavzuni Pinvord metodidan foydalanib tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur metod yordamida o'quvchilarda mulohaza yuritish va suhbat olib borish madaniyati, o'z fikrini bayon qilish mahorati, mantiqiy fikr yuritish hamda

chaqqonlik ko'nikmalari rivojlantiriladi. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida harakatlantiruvchi mashqlar "Tez javob" o'yin mashqini ham o'tkazish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda ona tili fanidan tashkil etilgan gamifikatsiya texnologiyalari ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi, dars jarayonida foydalanishning afzalligi shundaki, agar an'anaviy dars turlarida tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, gamifikatsiya texnologiyalari ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishga, hatto o'zlari xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Bu o'yinlar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. , ularning so'zlash va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shu bois ona tili darslarida geymifikatsiya texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim metodikasi Toshkent. O'qituvchi 2018
2. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar Toshkent. O'qituvchi 2017-yil
3. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. Ta'lim 2019